



BO'LAJAK PEDAGOGLARNI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI VA VOSITALARI

Barnoxon Turaxonova

Andijon davlat universiteti

Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti

Umumiy psixologiya kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7286974>

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasasida tayyorlanayotgan bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kopetentligini shakllantirish muammosining hal etilishi oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash ishiga pedagogik va kasbiy fanlarning ilg'or yutuqlarini qo'llash, xususan, kompyuter texnologiyalari, texnologik yondashuvlar, talabalarning bilish faoliyatlarini rejali boshqarish asosida faollashtirishdan, oliy ta'lim muassasasining ta'lim amaliyotiga zamonaviy o'qitish milliy tarbiya texnologiyalarining joriy etish, samaradorlik oshishiga yordam beradigan psixologik va pedagogik sharoitlarni yaratish va ulardan o'rinli foydalanish kerakligi haqida yoritilgan.

Abstract: In this article, the solution to the problem of forming the professional competence of future teachers who are being trained in a higher education institution is to apply the advanced achievements of pedagogical and professional sciences to the work of training a higher education specialist, in particular, computer technologies, technological approaches, students' cognitive activities. It is explained that it is necessary to implement modern national educational technologies, to create psychological and pedagogical conditions that help to increase efficiency, and to use them appropriately.

Kalit so'zlar: pedagog, xalqaro standartlar, axborot texnologiyasi, bilim, malaka.

Key words: pedagogue, international standards, information technology, knowledge, qualification.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20.04.2017 yil "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori e'lon qilindi. Oliy ta'lim tizimida o'z yo'nalishlari bo'yicha dunyoning etakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning etakchi ilmiy-ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar etarli darajada olib borilmayapti. Shunday ekan oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy





rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash shart sharoitlarini yaratish zarur. Har tomonlama yetuk, barkamol yoshlarni yetishtirish uchun albatta malakali, o'z mutaxassisligini chuqur egallagan o'qituvchilar zarur. Shuning uchun xozirgi kunda o'qituvchilar oldiga juda ko'p vazifalar qo'yilmoqda. Shu bilan birga talabalarga xam. Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat.

Hayotimizning barcha sohalari kabi ta'lim tizimini ham modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Innovatsion ta'lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash yoshlarimizni bugungi tez o'zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirish uzluksiz ta'lim tizimining tuzilmasi hamda mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajriba asosida takomillashtirishni ko'zda tutadi. Buning uchun, avvalo, barcha ta'lim muassasalaridagi dars jarayonlarini ilg'or, ilmiyuslubiy jihatdan asoslangan zamonaviy uslubiyot bilan ta'minlashimiz lozim.

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmunini yangilash tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Barchamiz bugun chuqur anglab oldik-faqatgina zamonaviy asosda ta'lim-tarbiya olgan, jahonning manaman degan mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan bellasha oladigan, jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol yoshlar biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirish va yangi bosqichga ko'tarishga qodir bo'ladi. Buning uchun biz o'z faoliyatimiz davomida Bo'lajak pedagoglarda muomala madaniyatining tarkibiy qismi nutq madaniyati bilan bog'liqligi.

Chunki nutq va unda ifodalangan so'z kishiga ta'sir etuvchi qudratli psixologik kuchga egaligi va uni faqat o'zining mazmuni bilan emas, balki so'zlovchining aytilayotgan fikrini ifoda qilish uslubi bilan ham ta'sir darajasi va qudratini yanada orttirish mumkinligi haqida yetarlicha tushunchalar berib borishimiz lozim. Undan tashqari yosh pedagoglarda axborot texnologiyalaridan smamrali foydalana olish imkoniyati ham shakllanib borishi zarur.





Ma'lumki Axborot ob'ektlar, hodisalar, jarayonlar xabarlar to'plamidir. Olingan axborotlar belgili, matnli va grafikali ko'rinishda ifodalanadi. Belgili ko'rinishdagi axborot asosan harflar, raqamlar, belgilar va shu kabi belgilar ko'rinishidan iborat bo'ladi. Undan turli hodisalar murakkab bo'lmagan signallarni uzatish uchun foydalaniladi. Matnli belgilardan amalda juda keng foydalaniladi. Jahonda juda ko'plab kitoblar, oynomalar, kundalik ro'znomalar va boshqalar matnli ko'rinishda chop etilmoqda. Shunday ekan o'sib kelayotgan yosh pedagoglarning ish faoliyati davomida elektron texnologiyaklardan foydalana olish qobiliyati bilan bir qatorda o'quvchilar bilan muomala munosabatlari shakllanganligi ham katta o'rin egallaydi. Bu jarayonda bo'lajak pedagog to'plagan bilimlarni, muomala qilish tajribalarini o'zlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, O'qituvchi esa pedagogik jarayonda asosiy shaxs bo'lib xizmat qiladi, chunki unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. O'qituvchi o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy urf odat mezonlaridan saboq beradi. O'quvchilar muomala odobini, muloqot olib borish yo'llarini asosan pedagog timsolida anglab oladilar. Muallim o'quvchi uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qoladi. O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi talablardan biri talabaning xulqini, muomalasini, talaba bajargan ishni odilona, to'g'ri baholashdir. O'quv ishlari usullari yosh pedagoglarda o'rganish jarayonining samaradorligini belgilaydigan malaka jarayoniga oid sohani o'z ichiga oladi. Ta'lim oluvchining fikrlash faoliyati jarayonida bosh natija bilim, malaka va ko'nikmalarning shakllanganligidir.

Использованная литература:

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. –T.: Fan,2006.
2. Urazova M.B. Bo'lajak kasbiy ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish: Ped. fan. dokt. ... diss. – T.: 2015
3. Abdurasulov R. Psixologning kundalik kitobi. Jizzax – 2005

